



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 5 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
ТОМ 9, НОМЕР 5

LOOK TO THE PAST  
VOLUME 9, ISSUE 5



ТОШКЕНТ-2026

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат техника университети

**Халикова Рахбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат университети

**Махкамova Надира Рахмановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафаева Нодири Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ермегов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Андижон давлат университети

**Рашидов Ойбек Расулович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ИИВ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Озарбайжон давлат университети

**Саипова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Таниева Гулдона Мамановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайдон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Курбанов Бахтияр Журабаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Наманган давлат университети

**Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
**Масъул котиб**

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Баҳадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Юсупов Аҳмеджон Шоназарович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Urganch davlat universiteti

**Тиллажаева Хуршида Джумаваевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Тошкент давлат техника университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
**Масъул котиб**

**Исоқов Бахтиёр Робидинович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Наманган давлат университети

**Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети

**Турсунова Юлдуз Бобоқулловна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Азаматова Гулмира Байирбековна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Jizzax davlat pedagogika universiteti

**Каримжонов Жасурбек Мухторжонович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Ўзбекистон Миллий университети


<b>1. Diloram Babajanova</b> O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLARI:ILM-FAN DARG‘ALARI TARIXDA VA HOZIR.....	5
<b>2. Nilufar Dalibayevna Djurayeva</b> XOTIN-QIZLARGA MUNOSABAT MASALASIDA SOVETLAR SIYOSATI: MANBALAR TAHLILI VA TARIXSHUNOSLIK MASALALARI.....	13
<b>3. Наргиза Абдурахманова</b> ЗАМОНАВИЙ ТАДҚИҚОТЛАРДА АБУЛ БАРАКОТ НАСАФИЙ АСАРЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ.....	30
<b>4. Шерзод Таштурсунович Бахранов</b> ЎЗБЕКИСТОН ССРДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК ФАНИНИ РИВОЖЛАНИШИ: ЮТУҚ ВА МУАММОЛАРИ.....	37
<b>5. Ixtiyor Voxodir o‘g‘li Voxodirov</b> TURKISTON HARBIY OKRUGI TOMONIDAN 1916-YILGI JIZZAX QO‘ZG‘OLONING BOSTIRILISHI VA UNING OQIBATLARI.....	47
<b>6. Наргиза Кенжаева</b> ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАРДА ПРОСОПОГРАФИК МЕТОДНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ: ПОМИР РУС ТАДҚИҚОТЧИЛАРИНИНГ ЖАМОАВИЙ БИОГРАФИЯСИ (XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИ).....	53
<b>7. Lola Yusupovna Samatova</b> IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDAGI SOVET UCHUVCHI AYOLLAR BO‘LINMASI TO‘G‘RISIDA.....	66
<b>8. Ismoil Alimbayevich Nurmetov</b> O‘ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINI (BRM) AMALGA OSHIRISH STRATEGIYASI.....	72
<b>9. Malika Xaydarova Shaxriddin qizi</b> AMIR TEMURNING JANGLARDAGI HARBIY MAHORATI.....	78
<b>10. Feruza Erkinovna Atajanova</b> OLIIY TA‘LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR TENDENSIYALAR TAHLILI.....	83
<b>11. Muborak Madrimovna Matyakubova</b> XVI-XIX ASRLARDA XIVA XONLIGI BOZORLARIDA BOZORBOSHI, RAIS, MUHTASIB, SARROFLAR VA DALLOLLARNING FAOLIYATI VA HUQUQIY MAQOMI.....	89
<b>12. Анварбек Муродович Омонов, Маъруфжон Нурулиевич Рўзиев</b> КЎЛБУЛОҚ МАКОНИ ТОШ ИНДУСТРИЯСИНИНГ ТАҲЛИЛИГА ДОИР (ИЛК ПАЛЕОЛИТ ДАВРИ МАТЕРИАЛЛАРИ АСОСИДА).....	94



**Diloram Babajanova,**  
tarix fanlari doktori, professor  
d.babajanova@uzswlu.uz

## O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLARI: ILM-FAN DARG‘ALARI TARIXDA VA HOZIR

**For citation:** Diloram Babajanova. WOMEN OF UZBEKISTAN: SCHOLARS OF SCIENCE IN HISTORY AND THE PRESENT. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 5.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20082716>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada xotin-qizlarning ilm-fandagi ishtiroki tahlil qilingan. O‘zbek xalqi milliy-ma’naviy qadriyatlarining ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitilib borilishini ta’minlash borasida olib borilayotgan sa’y-harakatlar mamlakatni zamon talablariga mos ravishda rivojlanishiga keng yo‘l ochmoqda. Ana shu vazifalar, kelajak rejalari haqida fikr yuritilar ekan, fan va uning taraqqiyoti, demokratik islohotlar muvaffaqiyati, asosan, unda ilm-fan darg‘alari - olimalarning qanchalik darajadagi ishtiroki bilan bog‘liqligi, o‘zbek ayollari ajdodlariga xos bo‘lgan ilm-fan va madaniyat sohalarida erishgan yutuqlari ilmiy tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** xotin-qizlar, ilm-fan, oila va jamiyat, olima ayollar mavqei, gender tengligi, ilmiy salohiyat, ilmiy ishlanmalar, innovatsiya.

---

**Дилорам Бабажанова,**  
доктор исторических наук, профессор  
(Узбекский государственный университет мировых языков)  
d.babajanova@uzswlu.uz

## ЖЕНЩИНЫ УЗБЕКИСТАНА: ДЕЯТЕЛИ НАУКИ В ИСТОРИИ И СОВРЕМЕННОСТИ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье проанализировано участие женщин в науке. Проводимые усилия по обеспечению обогащения национально-духовных ценностей узбекского народа достижениями науки и прогресса открывают широкие возможности для развития страны в соответствии с требованиями времени. Рассматривая эти задачи и планы на будущее, отмечается, что развитие науки, успех демократических реформ во многом зависят от степени участия в них деятелей науки – женщин-учёных. Также проведён научный анализ достижений узбекских женщин, унаследованных от предков, в области науки и культуры.

**Ключевые слова:** женщины, наука, семья и общество, статус женщин-учёных, гендерное равенство, научный потенциал, научные разработки, инновации.

**Diloram Babajanova,**  
Doctor of Historical Sciences, Professor  
(Uzbekistan State World Languages University)  
d.babajanova@uzswlu.uz

## WOMEN OF UZBEKISTAN: SCHOLARS OF SCIENCE IN HISTORY AND THE PRESENT

### ABSTRACT

This article analyzes the participation of women in science. The ongoing efforts to enrich the national and spiritual values of the Uzbek people with the achievements of science and progress are opening broad opportunities for the country's development in accordance with modern requirements.

While discussing these tasks and future plans, it is noted that the development of science and the success of democratic reforms largely depend on the level of participation of scholars – women scientists. The achievements of Uzbek women, inherited from their ancestors in the fields of science and culture, are also scientifically analyzed.

**Index Terms:** women, science, family and society, status of women scientists, gender equality, scientific potential, scientific research, innovation.

---

### Dolzarbli:

Dunyoda tobora globallashib borayotgan jarayonlar, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy o'zgarishlar xotin-qizlarning oila va jamiyatdagi rolini oshirishni ham muhim masalalar sifatida yuzaga chiqarmoqda. Hozirgi kunda Yangi O'zbekiston Respublikasida ham oila, xotin-qizlar, yoshlar tarbiyasiga oid muammolarni hal qilishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilib, ular amaliyotga tadbiriq qilinmoqda. Ushbu masalalarning muhim jihati shuki, ayollarga oid barcha masalalar davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Shu bois, O'zbekiston tarixida alohida tadqiq qilinmagan ayollarga oid masalalarni har tomonlama ilmiy tadqiq qilish va o'rganish dolzarb ahamiyatga ega.

Bugungi, mustaqillik sharoitida yaqin o'tmishda yashagan ayollarning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki, ilm-fan sohasida erishgan yuksak o'rni, gender munosabatlari kabi masalalarni qayta ko'rib chiqish zarurati paydo bo'ldi. Yaqin o'tmishda ayollarning oila va jamiyatdagi mavqeining o'zgarish jarayonlari, xotin-qizlarning ilm-fandagi ishtiroki, milliy-ma'naviy qadriyatlarining ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitilib borilishini ta'minlash borasida olib borilayotgan sa'y-harakatlar mamlakatni zamon talablariga mos ravishda rivojlanishiga doir masalalarni yangi ma'lumotlar asosida tadqiq qilish dolzarb bo'lib turibdi.

Shu bois, bu jarayon davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Shu vaqtgacha ayollarning mavqei, ularning oila va jamiyat hayotida, ilm-fan taraqqiyotida erkaklar bilan bir qatorda tutgan o'rnini tarixiy manbalar va arxiv hujjatlari alohida ilmiy tadqiq qilish zarurati tug'ildi. Bu borada arxiv fondlarida saqlanayotgan va ko'proq ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan, ilm-fan sohasiga tegishli bo'lgan hujjatlar muhim o'rin tutadi. Xususan, o'zbek ayollari ajdodlariga xos bo'lgan siyosat, ilm-ma'rifat va madaniyat sohalarida ulkan zafar cho'qqilarini egallaganliklari, oila va jamiyatdagi o'rnini tadqiq etish ushbu masalaning dolzarbligini ko'rsatadi.

### 2. Metodlar:

Maqola umum e'tirof etilgan metodlar, jumladan tarixiy-taqqoslash, qiyosiy-tahlil, tizimlashtirish, sosiologik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan. Bugungi kunda jamiyatda milliy qadriyatlar, ma'naviy-ma'rifiy yuksalish hamda ilm-fan taraqqiyotida O'zbekiston olimi ayollarining alohida o'rni borligi va ilmiy tadqiqotlar tarmog'ining kengayib borishi, shuningdek, xotin-qizlarni ilmga jalb etish jarayonlari yangi yondashuvlar asosida tahlil etilgan, bu borada qabul qilingan ko'plab farmon, qonunlar va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar mazmun-mohiyati ochib berilgan.

### 3. Tadqiqot natijalari:

Dunyoda ro'y borayotgan globallashuv jarayonlari, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy o'zgarishlar xotin-qizlarning oila va jamiyatdagi rolini oshirishni ham muhim masalalar sifatida yuzaga

chiqarmoqda. Yangi O‘zbekiston Respublikasida ham oila, xotin-qizlar, yoshlar tarbiyasiga oid muammolarni hal qilishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilib, ular amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Ilm-fan rivojiga e‘tibor va xalqaro darajada imkoniyatlar eshigining ochilib borishi jarayonida ilmiy sohada ish olib borayotgan olima ayollarni qo‘llab-quvvatlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda xotin-qizlarning davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda faolligini oshirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining **69-maqsadi** “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta‘minlash”[1.], deb belgilangan. Albatta, ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini kuchaytirish, ularni qo‘llab-quvvatlashga doir islohotlarda o‘z aksini topgan ezgu maqsadlarni amalga oshirish, eng avvalo, uch ming yillik o‘zbek davlatchiligi tarixida ayollarga bo‘lgan munosabat, turli davrlar osha saqlanib qolgan xotin-qizlarni qadrlash va e‘zozlash bilan bog‘liq bo‘lgan milliy tarbiya, urf-odat hamda an‘analarni chukur o‘rganish, xotin-kizlarning o‘zbek davlatchiligi tarixidagi o‘rni va xizmatlarini dunyo xalqlari o‘rtasida keng targ‘ib etish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “Ayollarga ilm berish – jamiyatni ilmi, ma‘rifatli va salohiyatli qilish” degan aqidani hayotga izchil tatbiiq etishni taqozo etadi”[2.250.]. Zero, Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining asosiy maqsadi – ayollarga e‘tibor va amaliy g‘amxo‘rlik ko‘rsatishni yuksak bosqichga olib chiqish, xotin-kizlarning jamiyatdagi o‘rni, ayniqsa ilm-fan rivojidagi maqomini mustahkamlashdan iborat.

Ta‘kidlash mumkinki, o‘tmishda davlat boshqaruvi, harbiy ishlar, yurt himoyasi, mulkchilik, qurilish, ishbilarmonlik, homiylik, ta‘lim-tarbiya, adabiyot, diniy sohalarda o‘zbek ayollari ko‘rsatgan faoliyat kamdan kam xalq va davlatlar tajribasida uchraydi. Buni so‘nggi yetti-sakkiz yil ichida jadal rivojlanishni boshdan kechirayotgan jarayonlarni tarix fanida qo‘lga kiritilayotgan ilmiy natijalar isbotlamoqda.

Ma‘lumki, turli davrlarda xotin-qizlarga munosabat hukmron siyosat ta‘sirida o‘zgarib turgan bo‘lsa-da, o‘zbek ayollari har qanday vaziyatda ham o‘zligini unutmagan. Butun dunyo taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan allomalar va buyuk shaxslarni o‘zbek ayollari tarbiyalab voyaga yetkazganlar. Ibn Sinoning onasi Sitorabonu, Imom Buxoriyning onasi Fotimabegim, Xoja Bahouddin Naqshband onasi Bibi Orifabegim, shuningdek, tarixiy davrlar silsilasida buyuk momolardan jasur To‘maris, olima Fotima, oqila Bibixonim, mehribon opa-Xonzoda begim, Gulbadanbegim, zukko va donishmand shoiralalar: Zebunniso, Uvaysiy, Nodirabegim, Anbar Otin, Samar Bonu kabi fozila, vatanparvar momolar mana shunday o‘zbek ayollarining yorqin timsoli sifatida tarixda qolgan.

Sovet davri qatag‘oniga uchragan jadid bobolar bilan yelkama-yelka turib millat taraqqiyoti, ozodligi yo‘lida fidoyilik qilgan, o‘z hayotini xatarga qo‘yib kurashgan Maryam Sultonmurodova, Xayriniso Majidxonova, Xadicha Aliyeva, Diloru Yusupova kabi o‘nlab matonatli ma‘rifatparvar o‘zbek xotin-qizlarining ibratli faoliyati bugungi mustaqil o‘lka ayollari uchun ibrat namunasi. Yaqin o‘tmishda mamlakat yuridik sohasini rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shgan Xadicha Sulaymonova, Mamlakat Vosiqova, Halima Muhitdinova kabi taniqli huquqshunoslar, Rahima Aminova, Melixon Oxunova, Sabohat Azimjonova, Ra‘no Rajabova, Roziya Muqminova kabi tarixchi olimalar yaratib ketgan maktab, boy ilmiy meros soha uchun yetuk kadrlar tayyorlashda hozir ham asqatmoqda. Butun ijodi davomida o‘zbek xotin-qizlarining orzu-armonlarini, sevgi va sadoqatini, ona Vatanga bo‘lgan cheksiz muhabbatini tarannum etgan shoiralardan Zulfiyaxonim, Halima Xudoyberdiyeva kabi ko‘plab shoiralarning durdona asarlari o‘zbek xotin-qizlarini hamon yuksak marralar sari yetaklamoqda.

Bugungi kunga kelib, mustaqillik sharoitida yaqin o‘tmishda yashagan ayollarning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki, oila-nikoh munosabatlaridagi yuksak o‘rni, gender munosabatlari kabi masalalarni qayta ko‘rib chiqish zarurati paydo bo‘ldi. Yaqin o‘tmishda ayollarning oila va jamiyatdagi mavqeining bosqichma-bosqich ortib yoki pasayib borish jarayonlarining ayrim qirralarini, ularning hayoti va faoliyatini alohida tadqiq qilish imkoniyati mavjud. Darhaqiqat, Prezident Sh.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “Bugun buyuk ajdodlarimizning bebaho merosiga tayanib, yangi Renessans poydevorini yaratish uchun bizda barcha imkoniyatlar

mavjud. Hamma gap ana shu imkoniyatlardan qay darajada oqilona foydalana olishimizga bog'liq"[3.220.]. Ushbu davr bilan bog'liq tadqiqotlar kam yaratilganligi sababli ham bu davriy va mintaqaviy o'zgarishlar barcha sohalar kabi tarixiy tadqiqotlar ilmiy samaradorligini barqaror ravishda olib borilishi muhim sanaladi.

Shu bois, bu jarayon davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanishi barobarida, o'zbek ayollarning hayoti va faoliyatini har tomonlama, tizimli ravishda o'rganish taqozo etiladi.

Mavzuni tadqiq etishda birlamchi arxiv fondlarida saqlanayotgan va ko'proq ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan, olimalarning hayoti va faoliyatiga tegishli bo'lgan hujjatli materiallar muhim o'rin tutadi. Xususan, olimalarning hayoti, insoniy fazilatlarini, qoldirgan boy ilmiy merosi to'g'risida, ularning haq-huquqlari, oila va jamiyatdagi o'rni hamda ishtirokini tadqiq etish dolzarb masala hisoblanadi.

Zero, shu vaqtgacha olim ayollarning mavqei, ularning oila va jamiyatda tutgan o'rnini yaqin o'tmishga oid tarixiy manbalar va arxiv xujjatlari alohida tadqiqot ishi sifatida kam o'rganilgan. Bu borada hozirgi davr tadqiqotlarida olim ayollarning mavqei, salohiyati, ularning oila va jamiyatda tutgan o'rnini tarixini o'rganish bugungi O'zbekiston tarixshunosligida dolzarb ilmiy masala sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda.

2022-yil 9-avgustda Oliy Majlis Senati, Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi hamda Fanlar Akademiyasi Tarix instituti hamkorligida "O'zbek xotin-qizlarining davlatchilik tarixidagi o'rni va xizmatlari" mavzusida ilmiy anjuman o'tkazildi. Unda senator va deputatlar, hukumat vakillari, vazirlik va idoralar rahbar ayollari, faol xotin-qizlar, jamoatchilik vakillari ishtirok etdi[4.].

Ilmiy anjuman doirasida tashkil etilgan ko'rgazmada O'zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan noyob hujjatlari namoyishi tashkil etildi. Mazkur hujjatlari Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonligi davri hamda sovetlar davrida yashagan turli toifa ayollar tomonidan madrasa, maktab va boshqa ezgu ma'rifiy amallarga atab o'z boyliklarini xayr-ehson qilinganini tasdiqlaydi. Shuningdek, tadbirda o'zbek ayolining qadr-qimmatini, qadimgi ashyoviy manbalarda aks etgan ayol timsoli, xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rni, kiyinish madaniyati, zeb-ziynatlar va ularning falsafasi, ma'rifat, iqtisodiy hayot va davlat boshqaruvdagi faoliyati yoritib berildi. Ayniqsa, xotin-qizlar tomonidan ijtimoiy hayot, maorifning taraqqiy etishida amalga oshirgan homiylik, bunyodkorlik ishlari, yangicha fikrlovchi jadid ayollarining matbuotdagi chiqishlariga oid ma'lumotlar ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi.

Shuningdek, ko'rgazmada qadimgi arxeologik va yozma manbalarda ayollar tasviri, ularning oila-jamiyatda tutgan o'rni, ayollarning ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi ishtiroki, ayollarning ta'lim sohasidagi faoliyati, ayollarning kiyim-boshlari va transformatsiyasi masalalarini, qadimgi topilmalarda ayollarning o'ziga xos hashamlari, ularning hayotini ifodalovchi rasmlar, haykalchalar ham namoyish etildi. Yaqin o'tmishda xotin-qizlar hayotida sodir bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'rgangan holda, o'sha davrni ilmiy nuqtai nazardan batafsil tahlil etish bugungi tadqiqotchilar oldida turgan muhim vazifalardandir.

Ayollarning zamonaviy ilm-fan, madaniyat va huquqiy sohalarga oid masalalar S.Rashidova, F.Otaxo'jayev, G.Matkarimovalarning [5.17-23] dissertatsiya, monografiya va maqolalarida aks etgan. Xususan, F.Otaxo'jayev o'z ishida O'zbekiston Respublikasining nikoh to'g'risidagi qonunlarining rivojlanishi va ularning yanada takomillashuvi bilan bog'liq muammolarga [6.31] to'xtalgan. Mavzuga doir adabiyotlar tahlilidan tarixdagi o'zbek ayollarining, xususan, sovetlar davridan hozirga qadar xotin-qizlar hayoti, faoliyati, jamiyatdagi o'rni xususida fikr yuritilar ekan, qisqacha bo'lsa-da, so'nggi davrlarda yashab, ijod qilgan, o'z kasbining muhim mutaxassislari, ularning taqdiri to'g'risida gapirib o'tish o'rinlidir. Jumladan, Nozimaxon O'zbekiston ayollarining jamiyatdagi rolini erkinlashtirishga intilgani bilan katta iz qoldirgan. 1915 yilda Nozimaxonimning yuzi ochiq bo'lgan ayollar fohishaga tenglashtirilgan "Xotin-qizlarni pardada saqlash haqida"gi she'rga javob tariqasida yozilgan she'ri chop etiladi. Nozimaxonimning ijod namunalari bir qancha jadid nashrlarida chop etilgan. Biroq 20 dan sal ko'proq misrasi saqlanib

qolgan. Sobira Xoldorova Nozimaxonimdan farqli o'laroq, professional jurnalistik ta'lim oldi. "Yangi yo'l" gazetasining bosh muharriri bo'ldi va O'zbekiston ijtimoiy hayotida faol ishtirok etdi. 1930 yilda u Markaziy Qo'mita raisining Ommaviy tashviqot bo'yicha o'rinbosari, ayollar va qizlar bilan ishlash sektori mudiri etib tayinlandi. 1937 yilda mashinist bo'lib ishlay boshlagan va O'zbekistonda bu kasbni egallagan birinchi ayol bo'lgan. Zulfiya Umidova butun umr ilm va amaliyotni uyg'unlashtirgan. Ilmiy faoliyati davomida doktor 80 ta maqola yozgan, 32 ta nomzodlik va 3 ta doktorlik dissertatsiyalariga ilmiy rahbarlik qilgan[7.].

Yaqin o'tmish tarixi sahifalariga nazar tashlansa, ma'rifatparvar jadidlar namoyandalari o'z davrida o'zbek ayollarining faol bo'lishlarini, jamiyat taraqqiyotida erkaklar bilan bir qatorda faoliyat yuritishlarini orzu qilganlar. Abdurauf Fitrat o'zining "Oila" asarida: "Ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligi milliy ozodlik, erk uchun zarur. Ayollar faqat uy-ro'zg'or bilan, bola tarbiyasi bilan band bo'lib qolmasligi, ularning Yevropadagi kabi, siyosatda qatnashishlari o'rindir", degan fikrlarni ilgari surgan edi. Ular qilgan bu orzular ko'p o'tmay o'zining ijobiy mahsulini berdi. O'zbek ayollari ajdodlariga xos bo'lgan siyosat, ilm-ma'rifat va madaniyat sohalarida katta yutuqlarni qo'lga kiritdilar. Jumladan, 20-yillarning boshlarida Turkiston Respublikasi "Ko'mak" jamiyati tomonidan Germaniyaga o'qishga yo'llangan 16 nafar talaba orasida Maryam Sultonmurodova, Xayrinisa Majidxonovalar ham bor edi. Bu kabi misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Toshkentda O'rta Osiyo davlat universitetini ochilishi ayollarning ilm olishga bo'lgan imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. XX asr davomida aniq, tabiiy va ijtimoiy sohalarda tadqiqot ishlarini olib borgan ayollar soni ortib bordi. Albatta bunda Fanlar Akademiyasi olim ayollarini alohida qayd etish joiz. Ana shunday ayollar orasida xuquqshunos ayollarni ham uchratish mumkin edi. Shulardan biri - Culaymonova Xadicha (1913-1965) huquqshunos olim sifatida tarix sahnasiga kirib keldi. O'z faol mehnati tufayli O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, yuridik fanlari doktori, professor, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi (1956) darajasiga yetdi. 1954 yili O'zbekiston SSR MIQ huzuridagi Sovet qurilishi va huquqi instituti rektori, O'rta Osiyo universitetining yuridik fakulteti dekani, O'zSSR Adliya vaziri (1956-1959), O'zSSR Ministrlar Soveti huzuridagi Adliya komissiyasi raisi (1959-1964). 1964 yildan O'zSSR Oliy sudi raisi bo'lib ishlagan. Ilmiy ishlari jinoyat huquqi, hususan, O'zbekistonda huquqshunoslik fanining vujudga kelishi va rivojlanishi, xotin-qizlar huquqi masalalariga bag'ishlangan. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Falsafa va huquq institutini, respublika Adliya vazirligi huzuridagi Sud ekspertizasi ilmiy tadqiqot institutini tashkil etish tashabbuskorlaridan biridir. Toshkent shahridagi ko'chalardan biriga, sud ekspertizasi ilmiy tekshirish instituti (hozirgi Respublika sud ekspertiza markazi)ga Xadicha Sulaymonova nomi berilgan, Toshkent yuridik institutida Xadicha Sulaymonova muzeyi ham mavjud.

O'zbek xalqining madaniy merosi hisoblagan qo'lyozma asarlarini o'rganishda taniqli sharqshunos olim Sabohat Azimjonovanning (1922-2001) munosib o'rni bor. U 1949 yilda nomzodlik, 1969 yilda doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Olimaning asosiy ilmiy ishlari Zahiriddin Muhammad Boburning Qobul va Hindistondagi faoliyati, O'rta Osiyo xalqlarining o'rta asrlarda qo'shni xorijiy mamlakatlar bilan o'zaro siyosiy va iqtisodiy munosabatlariga bag'ishlangan. Olimaning asarlari Eron, Afg'oniston, Hindiston, Fransiyada chop etilgan. Bunga misol tariqasida Zahiriddin Muhammad Boburning qizi Gulbadan-begimning "Humoyunnoma" asarini olish mumkin. Olima uni fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qilib 1959 va 1977 yillarda Toshkentda nashr ettirgan. Aynan shu asar 1996 yilda Parij shahrida fransuz tilida chop etilgan. 1983 yilda Sabohat Azimjonovanning sharqshunoslik fanini rivojlantirishga qo'shgan ulkan hissasi va sermahsul ilmiy faoliyati yuksak baholanib, u "O'zSSRda xizmat ko'rsatgan fan arbobi" unvoni bilan taqdirlandi. 2000 yilda Sabohat Azimjonova O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining akademigi etib saylandi. Shu bilan birga, olim Beruniy nomidagi O'zbekiston Davlat va Javoharlarl Neru xalqaro mukofoti laureati hamdir.

Mamlakat tarixida o'zining noyob iqtidori, bilimi, saviyasi va zukkoligi bilan nom qoldirgan hamda mustaqil dunyoqarashga, falsafiy mushohadaga ega yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalashda alohida o'rniga ega o'nlab ayollar nomini keltirish mumkin.

Shular orasidan tarix fanining zukko bilimdoni, fidoyi va zahmatkash insonlardan biri – O‘zbekiston Respublikasi FA akademigi, tarix fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Davlat mukofoti sovrindori, respublikada xizmat ko‘rsatgan fan arbobi Rahima Aminova olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarining g‘oyatda muhim va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini misol qilib keltirish mumkin. Raxima Aminova-tarixchi olim, professor (1925-2001). U universitetda yangi ochilgan sharqshunoslik fakultetiga o‘qishga kirdi. Sharqshunoslik fakultetida maxsus fanlardan tashqari, arab, fors, turk, ingliz va rus tillarining o‘rgatilishi kelgusida Rahima Aminovaga jahon adabiyotini o‘zlashtirishga imkon berdi.

Tabiatan kamtar, halol, pokiza va ajoyib insoniy fazilatlariga ega bo‘lgan Rahima Aminova tarix fanlari doktori ilmiy darajasiga sazovor bo‘lgan birinchi o‘zbek ayoli, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi bo‘lgan ilk ayollardan bo‘lib, yirik olim sifatida jahon ilmiy jamoatchiligiga yaxshi tanildi. O‘zbekiston va Markaziy Osiyo tarixiga oid ko‘plab tadqiqotlar muallifi, yetuk jamoat arbobi, iste’dodli olim bag‘ri keng, ilm va ziyo taratib kelgan, hayotining har bir daqiqasini mazmunli va samarali o‘tkazgan noyob iqtidor egasi edi.

Ilmga tashnalik Rahima Aminovani tavallud topgan Qo‘qon shahridan Toshkentga yetaklaydi. Bu yerda oliy ma‘lumotga ega bo‘lgach, iqtidorli mutaxassis sifatida O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya institutida o‘z mehnat faoliyatini boshlagan olim qirq yildan ortiq, mazkur dargohda umrining oxiriga qadar sidqidildan xizmat qilib kelgan. U hech qachon mansab, obro‘ talashmagan, katta lavozimlarga ham qiziqmagan. Boisi, ilm-fanni egallashni u o‘zi uchun eng katta lavozim, eng yuqori mansab deb bildi. Ana shu intilish, izlanishlar natijasida olim yirik ilmiy asarlar yarata oldi. Uning nashr qilingan asarlari 300 dan ortiq nomda bo‘lib, shundan 15 tasi yirik monografik tadqiqot ekanligi olimaning ilmiy qiziqishlari doirasi kengligi, ijodiy iste’dodi ko‘p qirraliligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston tarixi fani yutuqlarining tolmas targ‘ibotchisi Rahima Hodiyevena nafaqat mamlakatimizda, balki sobiq Ittifoq hatto, bir qancha xorijiy mamlakatlar ilmiy jamoatchiligi o‘rtasida o‘zining chuqur bilimi, tafakkuri, iqtidori, teran fikri hamda ilmiy salohiyati bilan nom qozongan edi. Olimaning o‘ndan ortiq xorijiy mamlakatlarda o‘tkazilgan xalqaro anjumanlarda qilgan muammoli, dolzarb mavzulardagi keng qamrovli, ilmiy teran va yuksak darajadagi ma‘ruzalarining ingliz tilida ravon, notiqlik qobiliyati bilan bayon etilishi, sharqona odob va madaniyat doirasida o‘zini tutishi jahon ilmiy jamoatchiligi tomonidan yuqori baholandi. Bu bilan o‘zbek millati orasida millatning guli, faxri va g‘ururi bo‘lishga arzigulik insonlar borligini dunyoga yana bir bor namoyish qildi.

Rahima Aminova 1978 yilda Shvesiyaning Upsala shahrida o‘tkazilgan Butunjahon sosiologlari kongressida O‘zbekiston xotin-qizlari masalasiga bag‘ishlangan ma‘ruzasini ingliz tilida qildi[8.16]. Bu ma‘ruza anjuman ishtirokchilari tomonidan yuqori baholanganligi, ma‘ruza yuzasidan O‘zbekiston xotin-qizlari hayotiga oid ko‘plab savollar berilganligi, jahon ilmiy jamoatchiligi respublikamiz to‘g‘risida yetarli ma‘lumotga ega bo‘lmaganligi va berilgan savollarga Rahima Aminova tomonidan sof ingliz tilida, donolik bilan dadil turib, javob berilganligi o‘zbek ayolining katta iqtidor egasi ekanligidan dalolat beradi.

O‘zbekistonda tibbiyot sohasidagi tadqiqotchilar orasida ko‘plab tibbiyot xodimlarini uchratish mumkin. Ulardan biri Malika Abdullaxo‘jayevadir(1932- 2018). Tibbiyot sohasidagi taniqli olim, sog‘liqni saqlash tashkilotchisi, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, tibbiyot fanlari doktori, professor. U o‘zining 60 yillik ilmiy-pedagogik faoliyati davomida Rentgenologiya, radiologiya va onkologiya ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent davlat tibbiyot instituti kafedrasini, O‘zbekiston Respublikasi patologoanatomik markazi kabi tashkilotlarda turli lavozimlarda samarali mehnat qildi. Olimaning ilmiy ishlanma va tadqiqotlari respublikamiz tibbiyot sohasida keng qo‘llanib kelinmoqda. Ayniqsa, uning respublikada patologoanatomik xizmatni tashkil qilishdagi o‘rni beqiyos. Uning mazkur sohadagi ilmiy ishlanmalari asosida yangi texnologiyalarni joriy qilinishi tibbiyot tarmoqlari rivojida muhim ahamiyatga ega. Olimaning tibbiyot sohasining nazariy va amaliy masalalariga bag‘ishlangan 300 dan ziyod ilmiy maqolalari, 20 yaqin kitob, va monografiyalari hamda 10 yaqin mualliflik guvohnomalari yurtimiz va xorijiy mamlakatlar olimlari va mutaxassislari tomonidan e‘tirof etib kelinmoqda.

Mavloniy Mashxura mikrobiolog olimi. 1934 yilda tugʻilgan. Oʻrta Osiyo Politexnika institutida 1952-1957 yillari Texnik mikrobiologiyasi yoʻnalishida taʼlim olgan. Olima 980 dan ortiq ilmiy asarlar, shu jumladan 48 ta kashfiyot va ixtirolar muallifi. Mashxura Mavloniy mikrobiologiya mutaxassisligi boʻyicha 1961 yilda fan nomzodi, 1971 yilda fan doktori darajalarga erishdi. 1979 yil Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi muxbir aʼzosi, 1989 yildan esa OʻzR FA haqiqiy aʼzosi – akademik etib saylandi. Oʻzbekiston mikrobiologiya fani yutuqlarining, bu sohaning rivojiga fidoiy inson - taniqli akademik Mavloniy Mashxura Egamovnaning munosib ulushi bor.. Olima mikrobiologiya sohasida katta ilmiy maktab yaratdi. Oʻrta Osiyoda ilk bor sanoat mikroorganizmlari kolleksiyasini yaratdi. Zararkunanda mikroorganizmlarga qarshi kurash usullarini ishlab chiqdi. Sporasiz zamburugʻlar tasnifining yangi sxemasini tuzdi. U tayyorlagan mutaxassislarning 80 foizini xotin-qizlar tashkil kiladi. Ular nafaqat Oʻzbekistonda, balki Rossiya, Latviya, Qozogʻiston va Turkmaniston ilmiy faoliyat olib bormoqdalar. Muxtasar qilib aytganda XX asr ilm-fan taraqqiyotida Oʻzbekistonning olimi ayollarini aloxida oʻrni borligi va ilmiy tadqiqotlar tarmogʻini kengayib borishi xamda xotin-qizlarni ilmga jalb etish jarayonlarini tezlashib borganini koʻrish mumkin.

Hozirda bu ishlarni davom ettirib kelayotgan D.Yusupova, R.Murtazayeva, H.Yunusova, Z.Ishanxodjayeveva, Yu.Ergasheva va yana yuzlab tarixchi olimlar ham borligini taʼkidlash joiz. Taniqli tarixchi olimlar ilmni aziz, fanni muqaddas deb bilgan, oʻz ustida qunt bilan, tinimsiz izlanayotgan, tarix fanining yangi sahifalarini yaratayotgan ilm ahllari intiluvchanlik borasida ham kasbdoshlari va shogirdlariga namuna boʻlib kelayotgan, tarix fanining zukko fidoyilaridir.

#### **4. Xulosa:**

Umuman olganda, Yangi Oʻzbekistonda xotin-qizlar huquqlari himoyasini tubdan kuchaytirish, ularning turmush sharoitlarini yaxshilash, taʼlim olish va oʻz salohiyatini roʻyobga chiqarishlari uchun keng imkoniyat yaratishga qaratilgan 30 dan ortiq meʼyoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. Jumladan, 4 ta qonun, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 10 ga yaqin Farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 14 ta qarori qabul qilindi[9.]. Yangilangan Konstitutsiyada xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi, davlat xotin-qizlar hamda erkaklarga davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek, jamiyat va boshqaruv hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni taʼminlashi belgilab qoʻyildi.

Butun dunyoda ilm-fan va boshqa sohalarida gender tenglik masalasi koʻndalang qoʻyilgan. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasida ham barcha sohalar qatori taʼlim va ilm-fan sohalarida ham gender tenglikni taʼminlashga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Oʻzbekistonning oliy taʼlim tizimini rivojlantirish konsepsiyasida aniq fanlar, texnologiya, muhandislik, ijodiy sanʼat va matematikani rivojlantirishga urgʻu maqsadiga urgʻu berilgan

Ilm-fanda ayollarning ishtiroki global va milliy taraqqiyot uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Olimalar ilm-fanda faol boʻlgan davlatlarda iqtisodiy va innovasion oʻsish yuqori boʻlganligi bois, ayollarning ilm-fan va taʼlim sohasidagi ishtirokini kuchaytirish, ularni rahbarlik lavozimlariga tayyorlash, grantlar va taʼlim dasturlari orqali qoʻllab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Soʻnggi oʻn yil mobaynida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan respublikada xotin-qizlarning bilim olishi va ilmga jalb etish uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar natijasida olimalar soni kundan-kun ortib borayotganini koʻrish mumkin. Ilm-fan rivojiga eʼtibor va xalqaro darajada imkoniyatlar eshigining ochilib borishi bugungi kunda ilmiy sohada ish olib borayotgan olimlar ayollarni qoʻllab-quvvatlashda muhim omil boʻlib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning oʻrni va mavqeini yanada mustahkamlash – islohotlarimizning eng ustuvor yoʻnalishlaridan biri boʻlib qolishi kerakligi uqtirilgan Prezident Murojaatnomasida, shuningdek, “mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 17 milliondan ziyod opa-singillarimiz, qizlarimiz, onaxon va momolarimizga munosib sharoit yaratib berish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishimiz lozim”, degan dolzarb masala koʻtarildi[10.249]. Mustaqil Oʻzbekistonning vatanparvar, sergʻayrat, ilm-fanini taraqqiy ettirish, islohotlar jarayonida faol qatnashish uchun bugungi kunda astoydil ter toʻkayotgan millatning faxri,

g'ururi sifatida asrashga loyiq, arzigulik, ilm-fanda yuzlab fidoyi olim va olimalari bor ekan, bu yurtning kelajagi porlok, xalqi esa boy, badavlat bo'ladi, farovon hayot kechiradi.

### Iqtiboslar/Cnoski/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni// <https://lex.uz/docs/5841063>
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B.250.
3. Shavkat Mirziyoyev. Vatan va xalq haqida o'ylar.–Toshkent:O'zbekiston, 2025.–B.220.
4. O'zbek ayolining tariximizdagi o'rni va xizmatlari beqiyos bo'lgan// <https://www.xs.uz/uzkr/post/ozbek-ayolining>.
5. Rashidova S. O'zbekistonda xotin-qizlarning ahvolini yaxshilash muammolari// O'zbekistonda gender va rivojlanish xabarnomasi. Toshkent.1999.№2. – B.17-23;
6. Otaxo'jayev F. Nikoh va uning huquqiy tartibga solinishi. Toshkent. 1995. – B.31.
7. O'zbekiston tarixidagi ilk kashshof ayollar// <https://www.gazeta.uz/uz/2023/03/08/they-were>
8. Bobojonova D. Millat g'ururiga aylangan ayol//Fan va turmush. –Toshkent, 1996, №1. – B.16.
9. O'zbekiston–ayol qadri ulug'langan yurt// [www.uzembassy.https://www.uzembassy.uk](http://www.uzembassy.https://www.uzembassy.uk) > news.
10. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi.–Toshkent:O'zbekiston, 2021.–B.249.
11. Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы» // <https://lex.uz/docs/5841063>
12. Мирзиёев Ш. Стратегия Нового Узбекистана. – Ташкент: Узбекистан, 2021. – С.250. 3. Шавкат Мирзиёев. Размышления о родине и народе. – Ташкент: Узбекистан, 2025. – С.220.
13. Место и заслуги узбекской женщины в нашей истории неопределимы // <https://www.xs.uz/uzkr/post/ozbek-ayolining>
14. Рашидова С. Проблемы улучшения положения женщин в Узбекистане // Гендер и развитие в Узбекистане. Ташкент, 1999, №2. – С.17-23;
15. Отаходжаев Ф. Брак и его правовое регулирование. Ташкент, 1995. – С.31.
16. Первые выдающиеся женщины в истории Узбекистана // <https://www.gazeta.uz/uz/2023/03/08/they-were>
17. Бобожонова Д. Женщина, ставшая гордостью нации // Наука и жизнь. – Ташкент, 1996, №1. – С.16.
18. Узбекистан — страна, где ценится достоинство женщины // [www.uzembassy.https://www.uzembassy.uk](http://www.uzembassy.https://www.uzembassy.uk) > news.
19. Шавкат Мирзиёев. Стратегия нового Узбекистана. – Ташкент: Узбекистан, 2021. – С.249.

# ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
LOOK TO THE PAST

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000